

## MAQOLLARDA ANTONIMIK MUNOSABATLARNING IFODALANISHI

Madalova Mohiro'z Navro'zovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tatqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7440382>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada insoniyat uchun muhim o'r'in tutgan voqealardan hodisalar, ular o'rtasidagi qarama-qarshi tushunchalar, insonlarning ichki kechinmalari ifodalanishida antonimik xususiyatga ega bo'lgan maqollardan foydalanish va uning doiraviy tasiri to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi. Bilamizki maqollarda insonlarning tuyg'ulari biron narsaga bo'lgan fikrini ifodalashda ko'pincha, antonim so'zlardan foydalaniadi. Aynan shunday maqollarning tahlili ya'nada kengroq ifodalanib beriladi.

**Kalit so'zlar:** antagonism, maqollar, aksiologiya, antonim, til, tuyg'ular, fikr, qarama-qarshilik, tilshunoslik, linvo-perpektiv, leksikallogiya.

## ВЫРАЖЕНИЕ АНТОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СТАТЬЯХ

**Аннотация.** В данной статье представлена подробная информация о важных для человечества событиях, противоречивых понятиях между ними, использовании пословиц с антонимическим признаком в выражении внутренних переживаний людей, его циркулярном эффекте. Мы знаем, что в пословицах часто используются антонимы, чтобы выразить чувства людей по поводу чего-либо. Анализ таких пословиц будет выражен более широко.

**Ключевые слова:** antagonism, proverbs, axiology, antonym, language, feelings, opposition, мысль, противопоставление, языкознание, линвоперспектива, лексикология.

## EXPRESSION OF ANONYMOUS RELATIONS IN ARTICLES

**Abstract.** This article provides detailed information about the important events for humanity, the conflicting concepts between them, the use of proverbs with an antonymic feature in the expression of people's inner experiences, and its circular effect. We know that proverbs often use antonyms to express people's feelings about something. The analysis of such proverbs will be expressed more broadly.

**Keywords:** antagonism, proverbs, axiology, antonym, language, feelings, opposition, linguistics, linvo-perspective, lexicology.

## KIRISH

Zimdan kuzatib boqsak atrofdagi biz ifodalab beradigan hissiyotlarimiz qarama-qarshilikdan iborat ekanligini his qilamiz. Fikrimizni boy manolar bilan yetkazib berishda bu mezondan foydalanishimiz nutqimizni naqadar boy ekanligini, shuningdek undagi jozibadorlikni oshiradi. Ilmiy qarashlarga asoslansak har bir narsa yaratilishidan oldin uning qarama-qarshi tomonlari ham ko'rib chiqiladi. Ko'pincha odamlar maqollardan biror bir narsaga bo'lgan fikrini ifodalashda uning antonimik xususiyatini oshirishga harakat qilishadi bu esa asosiy nazarda tutilyotgan g'oyaning bo'rtilishiga sabab bo'ladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunga kelib o'zbek adabiyoti shuqadar sayqallanib boryaptiki unda sodir bo'layotgan jarayonlar, maqollardan keng ko'lamda foydalanish, tilimizdag'i so'zlarning fonetik va morfologik tarraqiyoti turli islohotlarni o'tkazish zaruriyatini oshirmoqda. Aytish joizki nutqimizda so'zlarda turli usullardan foydalanib muloqot qilish, kundalik suxbatlarimizda faol

ishlatilyotgan son-sanoqsiz so'zlar lug'at boyligimizni ortishiga turli idomalar va maqollarning ko'payishiga saba bo'ladi.

Bilamizki tarixda ota bobolarimiz o'z fikrini maqollar turli idiomalar bilan ifodalab berishga harakat qilishgan. Ularning maqollarni qanchalik noizlik bilan kuchli foydalanishiga qarab bilim darajasi, qay darajada iqtidorli ekanligi aqliy salohiyati belgilangan. Ko'rinish turibdiki maqollardan qay darajada nutqda foydalana olishga qarab odamlarning huquqiy maqomi belgilangan. Buni tilimizdagi eng katta yutuqlaridan biri desak xato bo'lmaydi.

Maqollarning qo'llashda biz ko'pincha antonim vositalardan, g'oyalarning ziddiyatlar o'rtasida kurashuvidan baxs munozaralar o'rtasida qarama-qarshi munozaralardan foydalanamiz. Bu leksikamizda antagonizm deb yuritiladi. Antagonizm bu (lotinchada antagonisma –baxs, kurash) bir-biriga qarama qarshi kuchlar fikr va g'oyalarning keskin kurashishini ifodalab beradigan ziddiyatdir. Misol uchun bazida insonlar maqollardan shu darajada kuchli foydalanishadiki undagi ziddiyat, kurash mazmuni oshib asl mazmuni yechimi yo'q baxs munozaraga taqalib qoladi. Bunday qarama-qarshiliklarni biz maqol va matallarda ko'p ko'rishimiz mumkin.

## NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki antonimik tushunchalarni biz ko'proq maqol va matallarda kuzatishimiz mumkin. Shuningdek antonimlar asosan, bir grammatik turkumlar orqali ifodalanadi. Masalan uzoq-yaqin, do'st-dushman, katta-kichik va shu kabilar. Ko'pincha ularning tag zaminida belgi yoki xatti-harakatlar yotadi. Maqollar insonlar o'rtasida muloqot jarayonida vogelikka nisbatan bildirilayotgan bir jarayonni ifodalab keladi. Nutqimizning deyarli barcha qismlari antonimlarga boy. Maqollarda antonimlardan keng ko'lamma foydalanish uning lingvistik tahlilga aylanib borayotganini anglatadi. Bu esa antonimiyagaga doir bir qator lug'atlar, unga doir izlanishlar oshishini tasdiqlaydi.

## MUHOKAMA

Malumki antonim so'zlar asosan sifat ravish va fe'l so'z turkumlarida ko'p uchraydi. Misol uchun keng-tor, chirolyi- hunik, qattiq-yumshoq va boshqalar. Bunday antonimlarni maqollarda qo'llash suhbatda etiborni tortadi. Antonimlarni maqollarda tahlil qiladigan bo'lsak so'zlar bir qator manolarni qamrab olishini ko'rsatadi.

"Yaxshi oshini yer, Yomon – boshini". Bu maqolda yaxshi va yomon so'zlari qarama qarshi bo'lib kelyotganini anglashimiz mumkin. Shuningdek sifatlar yordamida odamdag'i hislatlar baxolanayapti. Yaxshi so'zini talqin qilganimizda "yaxshi odam" "to'gri odam" manosini jamlab kelyotganini va yomon so'zi anglatib kelyotgan tushunchaga qarama-qarshilik hosil qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Tarixga nazar tashlar ekanmiz dunyo yaxshilik va yomonlik mezonlari ostiga qurilgan degan fikr olib borilgan ekanligini anglaymiz. Shuning uchun ham maqollarda yaxshilik va yomonlik mazmunidagi misollar talaygina. Millat tarixi qancha uzoqqa borib taqlalsa, maqollar ham shuncha qadimiy. Maqollar azaldan mavjud va til bor ekan xalq bor ekan u ham shuncha uzoq yashab qolaveradi. Yillar davomida sayqallanib borayveradi.

"Jaxl-dushman aql-do'st". ushbu maqolda qadriyatimizga aylangan holatlarni yoki uning aksini ko'rishimiz mumkin. Antonim so'zlar sifatida dushman va do'st so'zlari qo'llanilgan. Do'st va dushman so'zlari asli ot so'z turkumiga tegishli bo'lib, maqolda antonim juftlikni hosil qilyapti. Xatti-harakati o'zaro to'g'ri kelmaydigan do'st va dushman so'zlari insonning harakteri bilan bog'lanib katta bir manoni yoritib beryapti. Asosan leksemaning ko'chma manusi

ifodalangan bo'lib jaxl- g'azablanish hissiyoti-dushman ekanligi, aql-fikr yurutish-do'st insoniylik sifatlari bilan yoritilib berilyapti. Shuni ta'kidlash kerakki do'st dushman so'zlarini nutqimizda keng qo'llanilib, o'z va ko'chma manolarida ham qarama-qarshilikni ifodalaydi.

"Uzoqdagi ovni ko'rib, yaqindagi yovni ko'rmas bo'lma" maqolida ham qadriyatga aylanib ketgan farosat bilan ish tutish, o'ylab qadam bosish, har bir qadamimizda ogoh bo'lishimiz kerakligi haqida yuritilgan. Uzoq-yaqin so'zlar o'zari bir gramatik turkumga mansub bo'lib, nutqda faol qo'llaniladigan antonim so'zlar hisoblanadi. Bu antonimlar ko'pincha: Uzoq-yaqin – masofa, Uzoq-yaqin-qarindoshchilik rishtalari manosida qo'llaniladi. ko'rinish turibdiki maqollar qo'llanish doirasi uning nufuzini, keng manoda qo'llanilishi uning kelajagini ko'rsatib beradi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak maqollardagi antonimlarning borligi uning mazmunini oshiradi. Shuningdek maqollarning turli xususiyatlarini o'rganish xalqimizning boy tarixga ega madaniyatini, an'ana va urf-odatlari haqida malumot berishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Bu maqollarga bo'lgan e'tiborni oshiradi. Dunyo tilshunosligida bo'lgani singari o'zbek tilshunosligida ham e'tibor kuchayadi. Maqollar antonim va sinonim lug'atlarni boyishiga muhim bir manba vazifasini ham o'taydi. Maqollar qanchalik ko'p foydalanalib borilar ekan, tilimiz ham tinimsiz boyiydi. Kunlar osha yanggi maqollar, ideomalar ortib boradi. Yanggi tushunchalar kirib keladi. Bu kechiktirib bo'lmaydigan va o'z o'zida amalga oshib boradigan amaliy vazifadir.

## REFERENCES

1. Madalov, N.E. (2017). An Investigation into the English Language Writing Strategies Used by Uzbek EFL Secondary School Learners. Evrazijskij nauchnyj zhurnal, (4), pp.384-384.
2. Madalov, N.Je., & Tursunova, D.M. (2018). Primenenie komp'uternyh programm i obuchaushhih diskov pri obuchenii inostrannym jazykam. Aktual'nye problemy gumanitarnyh i estestvennyh nauk, (6), pp.104-106.
3. Madalov, N. E. (2020). Linguopsychological changes in an adult when learning a foreign language. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 417-421.
4. Мусин Ж. (1970) Антонимм в казахском языке. Алма-Ата,.
5. Талибов К. А. (1971) Антонимн в современном азербайджанском язмке. Баку.